

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK: 338.48:323(575.1)**

**XALILOVA GULNOZA NURULLO QIZI**

**TOSHKENT SHAHRIDA MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISH**

**71010401– Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha**

**magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
i.f.d. prof. A. Abduvohidov**

**TOSHKENT – 2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki  
himoyadan o'tgan. 13 - sonli bayonnoma " 24 " 04 2023 y.

Kafedra mudiri: i.f.d. prof. I. Axmedov

  
imzo


05.05.2023 y.  
sana

Ilmiy rahbar: i.f.d. prof. A. Abduvohidov

  
imzo

03.05.23  
sana

Talaba: G. Xalilova

  
imzo

03.05.23  
sana

Dissertatsiya Magistratura bo'limida 2021 yil yil " 20 " dekabr

№ 808 T raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Turizm – bu butun dunyo iqtisodiyotiga katta foyda olib keladigan iqtisodiyotning bir bo‘lagidir. Uni rivojlantirish, keng omma e‘tiboriga havola etish nafaqat iqtisodiyotimizga balki fuqarolarimizni ish bilan ta‘minlashga, mamlakatimizda ishsizlar soni kamayishiga hamda madaniyatimizni yanada yuksalishiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Turizmni rivojlantirishda uni segmentlarga ajratib olib, uning turlariga qarab muqobil strategiya ishlab chiqish, hamda belgilangan vaqt oralig‘ida ishlar samaradorligini nazorat qilib borish darkordir. Turizm shunday sohaki, unga qancha e‘tibor berganingiz sari u tobora jilvalanib, yangicha tuslanib, tarmoqlari kengayib boraveradi. Bu sohani rivojlantirishda nafaqat aql-zakovat balki ijodkorona yondashuv ham talab etiladi. Chunki ma‘lum bir davlatning turizm salohiyatini namoyish etish uchun turoperatorlardan u yerning shart-sharoiti, go‘zalligi, atrof-muhiti, iqlimini tasvirlab berish uchun lozim bo‘lgan marketing strategiyalari, reklama turlaridan oqilona foydalangan holda uni dunyoga namoyish etishda ham ijodkorona yondashuvdan foydalana olish talab etiladi.

Mazkur magistrlik dissertatsiya ishida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yaratib berilayotgan imkoniyatlar, turizmning barcha yo‘nalishlarini o‘ziga hos tarzda yuksaltirish hamda Toshkent shahrida dunyoga mashhur bo‘lgan turizm turlaridan biri MICE ya‘ni ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy-amaliy ishlar muhokama qilinib ular yuzasidan fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.

*Kalit so‘zlar: turizm, marketing, turist, tashqi savdo, konferensiyalar, ishbilarmonlik muhiti, imtiyozlar, erishilgan yutuqlar, MICE turizmi.*

## ANNOTATION

Tourism is a branch of the economy that brings huge benefits to the economy of the whole world. Its development and communication to the general public have a huge positive impact not only on our economy, but also on the employment of our citizens, the reduction of the number of unemployed in our country and the further growth of our culture. With the development of tourism, it is difficult to divide it into segments and develop an alternative strategy in accordance with its types, as well as monitor the effectiveness of work at certain intervals. Tourism is such an area, as you pay attention to it, it becomes more and more refined and new, and the networks continue to expand. Mastering this field requires not only intelligence, but also a creative approach. Because in order to demonstrate the tourism potential of a particular state, tour operators need to be able to use a creative approach to demonstrating it to the world, even with the rational use of marketing strategies, types of advertising that are necessary to describe the conditions, beauty, environment, climate of the country. Earth.

In this master's dissertation discusses the work carried out on the development of tourism in Uzbekistan, the opportunities created, the development of all areas of tourism in Uzbekistan and research and scientific and practical work on the development of one of the world-famous types of tourism in Tashkent - MICE.

*Keywords: tourism, marketing, tourist, foreign trade, conferences, business environment, advantages, achievements, MICE-tourism.*



## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
<b>KIRISH</b> .....	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
Tadqiqot ob’ekti va predmeti.....	14
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	14
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	15
<b>I BOB ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	17
1.1 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	17
1.2 Mavzuga oid mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
1.3 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	23
<b>II BOB METODOLOGIYA</b> .....	24
2.1 Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	24
2.2 Tadqiqot dizayni.....	24
2.3 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	25
<b>III BOB TAHLIL VA NATIJALAR</b> .....	27
3.1 O‘zbekiston Respublikasida MICE turizmini rivojlanish tendensiyasi va uning tahlili.....	27
3.2 Toshkent shahrida MICE turizmini rivojlantirishdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	44
3.3 Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	52
<b>XULOSA</b> .....	54
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	63



## KIRISH

### Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Vaqt – inson hayotidagi muhim omil sanaladi. O‘tayotgan har bir kun har bir lahza omonatdir. U insonlarning imkoniyatlarini, hayot tarzini sezilarli darajada o‘zgartirib yubora oladigan kuchdir. Bugungi kunda bo‘sh vaqt va yetarli mablag‘ga ega bo‘lgan deyarli har bir shaxs dunyo bo‘ylab sayohat qilgisi, vaqtidan unumli foydalangan holda ko‘ngildagidek hordiq chiqargisi keladi. Bu esa o‘z navbatida turizm degan tushuncha har bir shaxsning ongida mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Turizm – bu turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy yoki yakka tartibdagi sayohat turi ya‘ni turistning faoliyatidir. Bunday faoliyat turli xil turistik sanoat korxonalarini va ular bilan bog‘liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi.

Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan. Turizmning asoschisi esa Tomas Kuk hisoblanadi. U 1843-yilda birinchi temir yo‘l sayyohligini tashkil etgan. Sekin astalik bilan bu faoliyat dunyoning boshqa mamlakatlarida ham rivojlana boshlagan. Hozirgi kunda esa bu ko‘plab mamlakatlarning topayotgan noni, asosiy ishi desak adashmagan bo‘lamiz.

Barchamizga ma‘lum turizm mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradigan sohadir. Har bir mamlakat o‘zining tabiiy sharoiti, iqlimi, joylashgan yeri, urf-odat va an‘analaridan kelib chiqqan holda turizmning qaysidir turini rivojlantirishga harakat qiladi. Misol uchun Shvetsariya o‘zining tabiiy iqlimi, yam-yashil tabiati, qir-adirlari bilan mashhur bo‘lsa, Turkiya savdo-sotiq, ziyorat, gastronomik turizmi bilan dunyoga mashhurdir. Bizning mamlakatimizda esa asosan ziyorat, diniy-tarixiy, gastronomik turizm turlari juda yaxshi rivojlangan. Har yili mamlakatimizga xorijiy davlatlardan 4-5 millionga yaqin turist tashrif buyuradi. Bu esa bizning iqtisodiyotimizga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish darajasini mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmining real o‘sish darajasi hamda tarmoq va sohalarning undagi ulushining